

S.Mo'minov
D.Nurmonova
O.Karimova

NUTQ MADANIYATI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI KADRLAR
MALAKASINI OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
MARKAZI

SIDIQJON MO'MINOV, DILFUZA NURMONOVA,
ODINAXON KARIMOVA

NUTQ MADANIYATI

*(Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari
va talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma)*

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2005

Qo'llanma Andijon Davlat universitetining o'quv-uslubiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir: A. NURMONOV, professor

**Taqrizchilar: A. SOBIROV, dotsent
SH. YUSUPOVA, dotsent**

ISBN 5-633-01686-6

© To'plam. «Nutq madaniyati». «Yangi asr avlodi», 2005 yil.

SO'Z BOSHI

Inson mahluqotlar orasida so'zi bilan ajralib turadi. Til va tafakkur o'zaro uzviy aloqada ekan, kishilarning ma'naviy olamini uning so'zi, nutqi orqali aniq bilib olishimiz mumkin.

Chin inson doimo komillikka intiladi. Komillikning asosiy belgilaridan biri madaniy nutqdir. Shuning uchun ham qadimdan butun mashriq mag'ribda yoshlar nutqini rivojlantirishga, madaniy nutqni shakllantirishga alohida ahamiyat berganlar. Xususan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik», Ahmad Yugnaktiyning «Hibat ul Haqoyiq», Alisher Navoiyning «Hayratul abror», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Abulg'ozil Bahodirxonning «Shajarai turk» asarlarida so'z qadri, so'z qo'llash san'ati, so'z qo'llashning inson hayotida tutgan o'rni haqida ibratli fikrlar bayon qilinadi.

Ayniqsa mustaqillik sharoitida har tomonlama barkamol yoshlarni tarbiyalashga, ularning erkin fikrlash qobiliyatini o'stirishga alohida e'tibor berilayotgan bir paytda, madaniy nutqini o'stirishga ehtiyoj yana ham ortdi. Ana shuni e'tiborga olgan holda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limning filologiya fakultetlarida «Nutq madaniyati» kursini o'rganish rejalashtirilgan.

Shuning uchun bu kurs bo'yicha nazariy bilimni amaliyot bilan bog'lovchi, amaliyotdasiab ko'rish imkoniyatini ta'minlovchi o'quv qo'llanmalariga ehtiyoj katta. Ana shu amaliy ehtiyojni qondirish maqsadida ushbu qo'llanma dunyoga keldi. Qo'llanmada madaniy nutq va nutq madaniyati, nutqning kommunikativ sifati, uning tarkibiy qismlari, nutq odobi kabi tushunchalar haqida izchil ma'lumotlar berilgan. Nazariy ma'lumotni mustahkamlash, yoshlarda bu haqda ko'nikma hosil qilish uchun har bir mavzuga qator mashqlar tavsiya etilgan.

Berilgan nazariy tushunchalar mashqlarni ishlash jarayonida talabalar ongida mustahkamlanadi va shu yo'l bilan madaniy nutqqa erishish ko'nikmasi shakllanadi.

1-dars. KIRISH

Nutqiy faoliyat

Muhtaram o'quvchi! Siz atrofingizdagi odamlar bilan hamnafas, hamfikr bo'lib yashaysiz. O'zingiz bilgan voqea-hodisalarni boshqalarga bayon qilasiz. Ayni paytda boshqalardan ham yangi voqea-hodisalar haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Siz yashayotgan davrdan bir necha yuz yillar oldin bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqida ham yozma manbalardan o'qib axborot olasiz. Bularning hammasiga nima vositasida erishasiz? Tabiiyki, til vositasida. Zero kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi **til** hisoblanadi.

Har bir shaxs ma'lum bir til yoki bir necha tilda fikrlarini bayon qiladi. Demak, bir yoki bir necha til ko'nikmasiga ega bo'ladi. Ikki xil til ko'nikmasiga ega bo'lgan ikki kishi, garchi bir-birlariga gapirsalar ham, ular bir-birini tushuna oladilarmi? Yo'q.

Ko'rinadiki, kishilar o'rtasida fikr almashish ular uchun umumiy bo'lgan til vositasida amalga oshiriladi. Ana shu umumiy bir tilda fikr almashish jarayoni **nutqiy faoliyat** sanaladi.

Nutq- ma'lum axborotni ifodalovchi tilning muayyan qoidalariga bo'ysungan so'zlar ketma-ketligidir.

Nutqiy faoliyatda madaniy nutqning o'rni

Nutqiy faoliyat nutqning xilma-xil ko'rinishlari orqali amalga oshadi.

Jumladan, ko'chada sayr qilib yuribsiz. Atrofingizdagi kishilarning turli xil so'zlashuv nutqining guvohi bo'lasiz. Ayrımlari zarur so'zlarni topolmay «anaqa», «haligi» singari so'zlarni o'rinsiz qalashtirib tashlaydi. Ba'zilari so'z qo'shimchalarini to'g'ri qo'llamaydi. Natijada u bayon qilmoqchi bo'lgan fikrni qiynalib-siyalib tushunasiz. Bunday nutqqa madaniy nutq qarama-qarshi qo'yiladi.

Madaniy nutq deganda qanday nutq tushuniladi?

Bilib oling. *Ma'lum bir tilning muayyan davriga xos bo'lgan nutqiy me'yorlarga amal qiluvchi, fikrni aniq, lo'nda, izchil, ta'sirchan bayon etuvchi nutq **madaniy nutq** sanaladi. Madaniy nutqni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi esa **nutq madaniyati** sanaladi. Demak, nutq madaniyatining o'rganish obyekti madaniy nutq hisoblanadi.*

Savol va topshiriqlar:

1. *Nutq faoliyati deganda nimani tushunasiz?*
2. *Madaniy nutq nima?*
3. *Nutq madaniyati nimani o'rganadi?*

1 FASL

2– dars. NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATI

Kommunikatsiya soʻzini kundalik hayotingizda koʻp eshitgansiz. Bu soʻzning aloqa, axborot almashish maʼnolarini ifodalashini bilasiz. Lekin **nutqning kommunikativ sifati** degan tushunchaga endi duch kelyapsiz. Shuning uchun sizda bu tushuncha nima, degan savol tugʻilishi tabiiy.

Har bir mahsulotning sifati boʻladi. Masalan, bozorda sifatli olma xarid qilmoqchisiz. Sifatli olmani sifatsiz olmadan qanday farqlaysiz? Tabiiyki, bunda olmaning hajmi, tozaligi, mazasi va rangi sifatlilik belgisini koʻrsatishda xizmat qiladi.

Huddi shuningdek, nutq ham soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi nutqiy faoliyat mahsuli. U ham xuddi mahsulot kabi oʻz sifatiga ega. Nutqning ana shunday sifati **uning kommunikativ sifati** deb nomlanadi.

Bilib oling. Nutqning kommunikativ sifati nutq meʼyori, nutqning toʻgʻriligi, aniqligi, mantiqiyliqi, sofligi, ifodaliligi, boyligi, oʻrinliliqi kabi belgilarni oʻz ichiga oladi.

Savol va topshiriqlar.

1. *Nutqning kommunikativ sifati nima?*
2. *Nutqning kommunikativ sifati nimalardan tashkil topadi?*
3. *Nutq meʼyori nima?*

Nutq meʼyori

1-topshiriq. *Berilgan matndan meʼyorga amal qilingan va amal qilinmagan gaplarni aniqlang.*

Tabiat yoydi sepini

Tabiat sepini yoydi.

Buvim togʻamnigami ketdi?

Buvim togʻamnigiga ketdimi?

Bilib oling. Nutqning bir qancha funksional nusxalaridan til egalari tomonidan tarixan namuna sifatida qabul qilingan varianti nutq me'yori sanaladi. Tilning barcha sathlari o'z me'yoriga ega. Masalan, fonetik me'yor, morfologik me'yor, leksik me'yor, sintaktik me'yor va boshqalar.

1-mashq. Berilgan gaplardagi morfologik me'yorga mos kelmaydigan so'zlarni toping.

1. Osmondagi samolyotning guvullashi odamning asabini qaqshatib o'tadi
2. Karima dugonasidan xabar olib kelish uchun kasalxonaga ketti
3. Ahmad ottan tushsa ham egardan tushkisi kelmaydi-ya,-dedi Sobir
4. Kitobta berilgan mashqlarni daftarga ko'chirib yozish kerak.
5. Anhorda cho'milayotkan bolalar bir-birlari bilan sho'xlik qila boshlashti

Esda tuting. Ko'p bo'g'inli so'zlarda so'z urg'usi doimo so'zning oxiriga tushadi. Ayrim urg'u olmaydigan qo'shimchalar so'z oxirida kelsa, urg'u undan oldin tushadi.

2-mashq. Berilgan matndagi kelishik, egalik va ko'plik shakllarining joylashishi tartibiga e'tibor qarating. Qanday hollarda morfologik me'yor buzilishi to'g'risida fikr almashing.

Andijonda Qoradaryo bilan Farg'ona kanali oraliq'idagi orolga yozda yashash uchun chorbog' tiklagan edik. Bir yonida daryo, bir yonida kanal oqadi.

Shiyonimiz to'g'risida Katta Farg'ona kanalining Kuyganyor to'g'oni ko'rinib turadi. To'g'ondan quyilayotgan suv to'zonlari shamol esgan paytlarida ayvonimizgacha yetib keladi. Kanal bo'yida o'sgan bir tup zarang daraxti tagiga so'ri qurgandik. Zarang shoxlari so'riga tangadek oftob tushirmasdi. Saraton qizdirgan kunlari kechgacha shu yerda dam olardik.

(Said Ahmad)

Bilib oling. Adabiy me'yorga ko'ra, otlarda grammatik ma'no ifodalovchi qo'shimchalar tartibi quyidagicha: son qo'shimchasi+egalik qo'shimchasi+ kelishik qo'shimchasi: uylaringga. Fe'llarda: nisbat+bo'lishli-bo'lishsizlik + zamon + son + shaxs.

3-mashq. *Matndagi qaysi soʻzlar adabiy meʼyorga mos emasligini ayting. Leksik meʼyor haqida fikr yuriting.*

-Aka, bollardi, ishqilib, oilani opketgani keldim, uzr,-davom etardi Umar, nimagadir sokin tortib qolganga oʻxshardi.

-Yaqinda silardi hu-u orqalaringdagi shashlikxonada koʻrib qoldim. Bor-u, paxandi shashlikxonasi, morojniy, hammayoq bor. Mashinadan tushib, oʻshetta shashlik, morojniy yedilaring. Bir-ikkita ulfat bilan oʻtirgandik. Bulardi tanib qoldim. Oʻshandan beri oʻshetga koʻp keldim, bir kuni yana keldilaring. Yana koʻrdim. Surishtirdim. Sizzi taniydigan odamlar bor ekan, oʻshalardan adresizi bildim. Koʻp oʻyladim, adashganimni bildim. Bollar meniki... Endi uzr, aka, bulardi opketaman, javob bersez.

(T.Joʻrayev).

4-mashq. *Berilgan matndan gap boʻlaklarining joylashish tartibini aniqlang. Sintaktik meʼyorni belgilang.*

Bugun oʻn yetti kundirki, Bobur Hirotda Alisher Navoiy istiqomat qilgan muhtasham Unsiyada yashaydi. Unsiyaning baland peshtoqlari, niliy gumbazi, oftobda jilolangan rang-barang koshinlari Boburga Samarqanddagi Ulugʻbek madrasasini eslatadi. Lekin Unsiyaning toʻrt tomonidan toʻrtta minorasi Ulugʻbek madrasasinikidan balandroq, binoning hajmi ham kattaroq edi. Oʻzi bundan oʻn besh yilchagina oldin qurib bitirilgan, hali hamma bezaklari yap-yangi edi.

(Pirimqul Qodirov)

Bilib oling. Gap boʻlaklarining adabiy til uchun qabul qilingan qoidalar asosida joylashish tartibi sintaktik meʼyor sanaladi. Sintaktik meʼyor darak gaplarga qarab belgilanadi. Bunga koʻra ega oldin, kesim egadan oldin, hol esa kesimdan oldin qoʻllaniladi.

3-dars. NUTQNING TOʻGʻRILIGI

1-topshiriq. *Nutqning notoʻgʻri tuzilishiga sabab boʻlgan omilni aniqlang.*

Serhosilli yerlarga bugʻdoy eksang, koʻngildagiday hosil olaman. Qilgan mehnating zoye ketmaganiga xursand boʻlasiz.

2-topshiriq. *Ushbu ikki gapni til me'yorlariga muvofiq tarzda qayta tuzib, ko'chirib yozing.*

5-mashq. *Ajratilgan so'zlardagi xatolikni izohlang va ularni to'g'rilab daftaringizga ko'chiring. Qo'shimchalarni o'rnida qo'llamaslik nutq to'g'riligiga qay darajada putur yetkazishi to'g'risida fikr yuriting.*

San'atning katta yo'l chiqish uchun iqtidor, izlanish va mehnatning o'zigina kifoya qilmaydi. Kishini ilgariga **yetaklov** "ichki kuch" ham bo'lishi zarur. Ustoz san'atkor Muhammadjon Mirzayev saboqlarini **tinglashganim**, bastakor Shavkat Mirzayev **sinfiga** tahsil olganim, bu ikkisining chin ustozlik mehri **mendandagi** "ichki kuch"ni yillar davomida ulg'aytira bordi. **Ovozning** sozlash, talaffuz ustida ishlash, g'azal matnini qayta-qayta o'qish mazmunini **tushuntirishga**, so'z tugul har bir harfning aytilish **qoidasi** ama! qilish... ularning bu **talabchanligini** o'z samarasini berdi. ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasidan)

Bilib oling. So'zlarning nutq me'yoriga muvofiq qo'llanilishi so'z qo'llashning to'g'riligi sanaladi.

6-mashq. *O'qing. Matn mazmunidan chiqargan xulosalaringizni bayon eting.*

Biz Kibriyo opa bilan yaqin edik. Ayniqsa, men Yozuvchilar uyushmasida ishlagan yillarim u kishi bilan tez-tez ko'rishib turardik... Kibriyo opa fors, rus, o'zbek tillarini mukammal egallagan, ayniqsa, tillardagi muqobillik masalasida man-man degan tilshunos olimdan qolishmasdi. —Bizning ota-bobolarimiz uch tilda bemalol gaplashganlar: arabiy, forsiy, turkiy. Hozir-chi? Ba'zi sho'ring qurg'ur yozuvchi bitta o'zbek tilida eplab yozolmaydi. Nomi chiqqan bir yozuvchingiz uyalmay-netmay "katta muhabbat", deb yozibdi. Muhabbat qovun emas, uning katta-kichigi bo'lmaydi. O'zbeklar chin muhabbat, deydi, asl muhabbat, deydi. "Katta muhabbat", bu-o'rischadan ko'chirilgan ibora. Tunov kuni bir taklifnomaga ko'zim tushdi. "Sizni lutfan taklif etamiz" deyishibdi. "Lutfan" degani, bu — aslida taklif etishga arzimaysiz-u, ammo marhamat yuzasidan ham chaqira qoldik, degani. Biz gohida chiroyli so'zlarga mahliyo bo'lib ketib, ko'nglimizga kelgan narsani

yozaveramiz., bechora mehmon “lutfan” taklif etilganiga xursand bo‘lib ziyofatga oshiqadi. Tilga ehtiyot bo‘lish kerak, tilga qoqilgan odam o‘zini o‘nglay olmay qolishi mumkin.

(S.Siyoev)

7-mashq. *Egalik va shaxs-son qo‘shimchalarining I, II shaxs birlik hamda ko‘plik shakllarini o‘zaro bir-biri o‘rnida almashib qo‘llanishiga misollar yozing. Mazkur almashish tufayli umumlashtirish, kamtarlik, hurmat yoki hurmatsizlik kabi ma’nolar yuzaga chiqayotganligiga diqqat qiling.*

Namuna: Biz ham (men ham) shu yerda ishlaymiz (ishlayman).

Mana shu ishni bajarishimizda (bajarishimda) ustozlarning xizmati katta bo‘ldi.

O‘zlari (o‘zingiz) kelibdilar-da(kelibsiz-da).

Bilib oling. Qo‘shimchalarning nutq me‘yoriga mos ravishda qo‘llanilishi qo‘shimchalar qo‘llashning to‘g‘riligi sanaladi.

8-mashq. *Atrofingizdagi odamlar suhbatiga diqqat qiling, nutqlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga sabab bo‘layotgan omillar to‘g‘risidagi mulohazalaringizni yozing.*

Savol va topshiriqlar.

1. *Nutqning to‘g‘riligi nima?*
2. *Qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llash deganda nimani tushunasiz?*

4-dars. NUTQNING ANIQLIGI

1-topshiriq. *Quyidagi gaplardagi nutq ifodasi noaniqlikka sabab bo‘lgan so‘zlarni aniqlang va izohlang.*

Yoz faslida tez-tez kuchli yomg‘ir yog‘ib turadi. Uning natijasida yerlar loy bo‘ladi. Bolalar ko‘chalarda mazza qilib o‘ynashadi.

2-topshiriq. *Yuqorida berilgan gaplardan noaniqlikni bartaraf etib, daftaringizga yozing.*



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/4250> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/4250> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/4250>